

BOLALAR STOMATOLOGIYASIDA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

*Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti
stomatologiya yo'naliishi 3 - kurs talabasi
O'ktamova Shaxnozabonu*

Annotatsiya; Ushbu maqolada bolalar stomatologiyasida qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar, ularning turlari, samaradorligi va zamonaviy texnologiyalar yordamida bolalarda qo'rquvni kamaytirish yo'llari tahlil qilindi. Maqolada shuningdek, ota-onalarning roliga ham alohida e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: bolalar stomatologiyasi, psixologik yondashuv, qo'rquvni kamaytirish, diqqatni chalg'itish

Keywords; pediatric dentistry, psychological approach, fear reduction, distraction technique

Ключевые слова:: детская стоматология, психологический подход, снижение страха, метод отвлечения

Stomatologik muolajalar ko'plab bemorlar, ayniqsa bolalar uchun stress va qo'rquv manbai hisoblanadi. Bolalar stomatologiyasida muvaffaqiyatli davolashning kalit omillaridan biri – bu bolaga nisbatan to'g'ri psixologik yondashuvni tanlashdir. Psixologik yondashuvlar bemorning emotsional holatini tinchlantirish, qo'rquvni kamaytirish va davolash jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi

Bolalarining psixologik xususiyatlari Bolalar yoshiga qarab turlicha psixologik reaksiya ko'rsatadi. 3–6 yosh oralig'idagi bolalar abstrakt fikrlashdan yiroq bo'lib, tibbiy muolajani og'riq yoki xavf sifatida qabul qilishadi. 7–12 yosh oralig'ida esa bolalar ko'proq tushunishga harakat qiladi, ammo stressga nisbatan hali ham sezuvchan bo'ladi. Shu sababli, stomatolog bolalar ruhiyatini yaxshi tushunishi va mos strategiyani tanlashi muhimdir.

Psixologik yondashuvlarning asosiy turlari a) Diqqatni chalg'itish usuli (Distraction technique): Bu usulda bola og'riqli yoki qo'rqinchli holatdan chalg'itiladi. Masalan, multfilm tomosha qilish, musiqani eshitish yoki sevimli o'yinchoqlar bilan shug'ullanish. b) Ijobiy mustahkamlash (Positive reinforcement): Tish muolajalaridan so'ng bolani maqtab, kichik sovg'a berish bolaning keyingi safarlarda ham ijobiy munosabatda bo'lishiga yordam beradi. c) Model bo'yicha o'rgatish (Modeling): Katta yoshdagi bolaning stomatologik muolajasini kichik bolaga ko'rsatish, unga jarayonni tushuntirish orqali qo'rquv kamaytiriladi. d) Vizual va og'zaki tushuntirishlar: Bolaga ishlataladigan asboblarni soddalashtirilgan tilda tushuntirish, tibbiy jarayonni o'yin shaklida ko'rsatish – bu bolada ishonch uyg'otadi.

Ota-onaning roli Ota-onaning farzandiga bo‘lgan yondashuvi ham muhim omil hisoblanadi. Agar ota-onal muolajaga salbiy munosabatda bo‘lsa, bu bola ruhiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ota-onalarga bolani qanday tayyorlash bo‘yicha maslahat berish stomatolog zimmasiga tushadi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida psixologik qo‘llab-quvvatlash Bugungi kunda virtual reallik (VR), AR texnologiyalari va interaktiv multimedia vositalari bolalarni chalg‘itish va ular bilan kommunikatsiya qilishda samarali vositalar sifatida qo‘llanilmoqda. Ba’zi stomatologik klinikalarda bolalar uchun alohida “o‘yin xonasi” tashkil etiladi, bu esa muolajani kutish vaqtida stressni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Bolalar stomatologiyasida psixologik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri tanlangan yondashuv nafaqat muolajaning sifatini oshiradi, balki kelajakda stomatologik yordamdan qo‘rmasdan foydalanadigan sog‘lom jamiyat vakillarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada shifokorlar, psixologlar va ota-onalarning hamkorligi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ковалчук И.Л., Детская стоматология, Москва, 2020.
2. Wright GZ, Kupietzky A. "Behavior Management in Dentistry for Children", Wiley-Blackwell, 2014.
3. Отажонов Х.А., "Stomatologiyada psixologiya asoslari", Toshkent tibbiyot nashriyoti, 2018.
4. American Academy of Pediatric Dentistry (AAPD) Guidelines.